



RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLARDA OZIQ-OVQAT MUAMMOSI

¹Toshnazarov Abbosbek Xayrulloevich

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti 3-bosqich talabasi,

²Akabirxodjayeva Dilfuza

Ilmiy rahbar

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti "Tizimli tahlil va matematik modellashtirish" kafedrasi o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7505664>

ARTICLE INFO

Received: 25th December 2022

Accepted: 04th January 2023

Online: 05th January 2023

KEY WORDS

Global oziq-ovqat muammosi, qashshoqlik darajasi, FAO, YaIM, yashil inqilob, global xavfsizlik.

ABSTRACT

Global oziq-ovqat muammosi insoniyatning eng qadimgi muammolaridan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat yetishmasligi va uning natijasida kelib chiqadigan ocharchilik muammosi qadimgi davrlarda ham, o'rta asrlarda ham, hozirgi vaqtda ham insoniyat uchun eng katta xavflardan biri hisoblanib kelgan. Ocharchilik ikki shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Birinchi shaklida ocharchilik surunkali davom etadi, uning natijasida odamlarning sog'lig'i yomonlashadi, tinkasi quriydi va har xil kasalliklarga chalinish ehtimoli kuchayadi. Ocharchilikning bu shakli «to'yib ovqat yemaslik» deb ham ataladi. Ikkinchi shaklida ma'lum bir vaqtda yer yuzasining ma'lum bir hududida qurg'oqchilik yoki boshqa sabablar bilan bog'liq bo'lgan ocharchilik oqibatida millionlab, o'n millionlab insonlar halok bo'lishidir. Iqlim o'zgarishlari, tabiiy ofatlar va dunyo mamlakatlarida tobora avj olayotgan notinchlik, qolaversa inson omili bilan bog'liq boshqa muammolar oziq-ovqat masalasi kun tartibiga chiqishiga sabab bo'lmoqda. Albatta, oziq-ovqat deb atalmish ne'matning qadr-qimmatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi. Shunday ekan bu muammoning oldini olish, o'z vaqtida hal etish, insoniyatning kelajak taqdirini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oziq-ovqat muammosi va milliy oziq-ovqat xavfsizligi o'rtasidagi bog'liklikning nazariy jihatlarini

Dunyo hamjamiyatining bugungi kundagi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiy etib borayotgan bir davrda, har bir davlat uchun oziq-ovqat muammosini hal qilish uning iqtisodiyoti oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki oziq-ovqat hayotiy faoliyat uchun zarur bo'lgan elementlar orasida eng muhim va muqobil variantga ega bo'



Imagan vositalardan biri hisoblanib, turli sabablarga ko'ra oziq – ovqat yetishmovchiligining paydo bo'lishi ko'plab tiklab bo'lmas ta'sirlarga olib kelishi mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan qabul qilingan tushuncha quyidagicha: "barcha odamlar oziqlanish ehtiyojlari va shaxsiy xohishlariga binoan hamda faol va sog'lom hayotni ta'minlash uchun yetarli miqdorda xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlarini ega bo'lish uchun jismonan, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarga egaligi oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi demakdir". Oziq-ovqat iste'moli odamlar va xalqlar salomatligiga bevosita ta'sir qiladi. Qoniqarsiz oziqlanish inson salomatligini yemirib, jamiyat uchun ulkan iqtisodiy chiqimlarga olib keladi. Ko'p tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qoniqarsiz oziqlanish ko'p mamlakatlarning iqtisodiy oziq-ovqat iga to'sqinlik qilib kelgan. Oziqlanish va Iqtisodiy o'sishga bagishlangan FAO tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, oqsil iste'molining bir foizga ko'tarilishi o'zok muddat davomida yalpi ichki mahsulotning (YAIM) ni 0,49 foizga oshishiga olib keladi. YAIMning har yili bir foizga ortishi 72 yil davomida aholi daromadini ikki baravar oshishi, ikki foizga o'sishi esa 36 yilda ikki baravar yuksalishiga olib keladi. Iqtisodiy oziq-ovqat da oziqlanishning ahamiyati bebahodir. Turli mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun ko'rilgan choralarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- 1) ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash,
- 2) savdo,
- 3) iste'mol va mikrooziqaviy moddalar ta'minoti.

Ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash choralari Yashil inqilobni olg'a suradi. Uning natijasida qishloq xo'jaligida hosildorlik keskin oshib, bu ko'p mamlakatlarga oziq-ovqat xavfsizligiga erishishga yordam berdi. Lekin uning tatbiqida birmuncha xatolarga yo'l qo'yilgan. Mamlakatlar tahlilida savdo siyosatining ikki yo'nalishi: cheklovlar (shu jumladan o'zini-o'zi ta'minlash strategiyalari) va erkinlashtirishni namoyish etilib, izohlanadi. Biz yana iste'molni qo'llab- quvvatlash choralari va muayyan tajribalarni ko'mak (butun aholiga qaratilgan) va mo'ljalli ko'mak (aholining muayyan kam ta'minlangan toifalariga qaratilgan) nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi

Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi birinchi bor 1974 yilda Jahon Oziq-ovqat sammitida taklif qilingan bo'lib, "oziq-ovqat iste'molining barqaror o'sishini ta'minlash hamda ishlab



chiqarish hajmi va narxlarning o'zgarishlarini qoplash uchun asosiy oziq-ovqatlarning dunyoda yetarli jamg'armalari har doim mavjudligini" anglatadi. Keyingi yillarda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va to'yimligi hamda shaxsiy xohishlarni ham inobatga olish maqsadida oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi yanada kengaytirildi.

1996 yilda Jahon Oziq-ovqat xavfsizligi sammiti oziq-ovqat xavfsizligining sharti sifatida quyidagi belgilanadi: "...barcha odamlar o'z oziqlanish ehtiyojlari va shaxsiy xohishlariga binoan hamda faol va sog'lom hayotni ta'minlash uchun yetarli miqdorda xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga jismonan va iqtisodiy jihatdan ega bo'la olishi¹."

2001- yilda oziq-ovqat xavfsizligi g'oyasiga jismoniy va iqtisodiy imkoniyatdan tashqari ijtimoiy imkoniyat tushunchasi ham qo'shildi. Hozirgi FAO belgilagan tu- shuncha mazkur qo' shimcha jihatni quyidagicha aks ettiradi:

"barcha odamlar o'z oziqlanish ehtiyojlari va shaxsiy xohishlariga binoan hamda faol va sog'lom hayotni ta'minlash uchun yetarli miqdorda xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lish uchun jismonan, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarga egaligi oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlandi deganidir²".

FAO mutaxassislari fikriga ko'ra oziq-ovqat xavfsizligi jihatidan ahvol oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari, ta'minot barqarorligi, ega bo'lish imkoniyati va sog'lomligi bilan belgilanadi. Ular quyida batafsil belgilangan.

✓ **Barqarorlik:** oziq-ovqat ta'minoti uzilmasligi uchun aholi, oila yoki alohida shaxs har doim oziq-ovqatga ega bo'la olishi lozim. Ular kutilmagan hodisalar (iqtisodiy) yoki siklik hodisalar (iqlimiy oziq-ovqat tanqisligi) tufayli oziq-ovqatdan uzilib qolmasligi lozim.

✓ **Oziq-ovqat mavjudligi:** zarur sifatli oziq-ovqat mahsulotlarining zarur miqdorda ichki ishlab chiqarish yoki import orqali (shu qatori oziqaviy ko'mak) ta'minoti. Oziq-ovqat mavjudligining eng ko'p qo'llaniluvchi vositasi kaloriyalarda hisoblanuvchi jon boshiga kundalik energiya sarfidir (KES).

FAO uslublariga ko'ra KES ko'rsatkichi oziq-ovqat balansiga asoslangan ozuqa iste'moli turiga binoan hisoblanadi. FAO muayyan tovarlarni oziq-ovqat ta'minotining turli manbalari (ishlab chiqarish, jamg'armalar, savdo) va mahsulotlardan turli maqsadlarda foydalanishga

¹ S. Maxwell & T. R. Frankenberger. Uy xo'jaliklari oziq-ovqat xavfsizligi : g'oyalar, ko'rsatkichlar ,o'lchovlar, texnik tadqiqot. Nyu-York va Rim 1996-yil

² Food Security in the world: the role of governmental and nongovernmental organizations. HUGG International Symposium, Durban, South Africa). 2001



(yoki iste'mol) (yem, urug'lik, sanoatda foydalanish, chiqitlar) oid ma'lumotlardan foydalanib, oziq-ovqat balanslarini hisoblaydi.

✓ **Oziq-ovqatga ega bo'la olish:** to'yimli oziqlanish uchun zarur ozuqalarga ega bo'lish maqsadida zarur resurslardan foydalanish uchun jismoniy, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar. Oziq-ovqatning jismoniy ta'minoti oziq-ovqat mahsulotlari iste'molchilar talab qilgan miqdor va tanlovda bozorda mavjud- ligi hamda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun infrato'zil- ma bo'lishini nazarda tutadi. Iqtisodiy imkoniyat aholining barcha ijtimoiy qatlamlari yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishga qurbi yetishini bildiradi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy imkoniyat uy xo'jaliklari oziq-ovqat xaridi uchun yetarli daromadga egaligi va mamlakat oziq-ovqat importi uchun yetarli xorijiy valyutaga egaligini bildiradi. Ijtimoiy imkoniyat madaniyat yoki dindan qat'i nazar, butun aholi odilona tarzda oziq-ovqat ta'minlanishini anglatadi.

✓ **Foydalanish:** muvofiq oziqlanish, toza suv, sanitariya va soflikni saqlash orqali oziq-ovqat iste'mol qilish bilan barcha fiziologik ehtiyojlar qondiriluvchi holatga etish.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar alohida olingan davlat yoki mintaqa miqyosida ta'minlansa, bugungi kunda global muammo hisoblangan oziq-ovqat muammosining oldi sezilarli darajada olingan bo'lardi. Buning uchun BMT ning Xalqaro Oziq -ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti FAO ,Jahon banki va boshqa bir qator xalqaro tashkilotlar dunyo hamjamiyati davlatlari bilan o'zaro hamkorlik ish olib bormoqdalar.

Global oziq-ovqat muammolari sabablari , zamonaviy holati va salbiy jihatlari

Bugungi kunda dunyoda global bo'lib turgan muammolardan biri bu oziq-ovqat tanqisligi muammosi hisoblanadi. Bu muammo turli mintaqalarda turlicha rivojlangan. Muammoning kelib chiqishiga nazar tashlaydigan bo'lsak,uning turlicha ekanligini ko'rishimiz mumkin. Muammoning paydo bo'lishiga asosiy sabablardan biri bu- yuqorida ko'rib o'tilgan biror bir ko'rsatkich yetishmasligi -oziq-ovqat xavfsizligi darajasi pastligi yoki oziq- ovqat yetishmasligiga olib keladi. Oziq-ovqat yetishmasligi shunday vaziyatki, aholi meyorda o'sish, rivojlanish hamda faol turmush tarzi uchun zarur bo'lgan xavfsiz va to'yimli oziq-ovqatlarni yetarli miqdorda ololmaydi. Oziq-ovqat yetishmovchiligi yoki oziq-ovqat xavfsizligi darajasi pastligi aholi orasida qoniqarsiz oziqlanishga olib kelib, u o'z navbatida odamlar, oilalar va butun xalq uchun jiddiy oqibatlariga olib keladi. Oqsil va energiyani yetarli miqdorda iste'mol qilmaslik hamda hayotiy muhim ozuqa moddalar, ayniqsa yod, A vitamini va temir moddasining yetishmasligi bolalar hamda voyaga yetganlarning sog'ligi uchun salbiy oqibatlariga olib keladi. FAO ma'lumotlariga ko'ra temir tanqisligi onalar o'limi xavfini yigirma



foizga ko'paytiradi. Bolalar kamqonliligi jismoniy, aqliy va psixomotorika rivojlanishining sustlashishi hamda yuqumli kasalliklardan himoyasi zaiflashishiga olib keladi. TTA kattalarning sog'ligi yomonlashishi va mehnat unumdorligi pasayishiga olib keladi. Qoniqarsiz oziqlanishning iqtisodiy va moddiy oqibatlari ancha og'irdir. Qoniqarsiz oziqlanish tufayli hayot qisqarishi yoki nogironlik rivojlanayotgan mamlakatlarda hayotning ish unumdorligi yo'qolishiga olib keladi. 1994 yilda Nigeriyada tug'ilgan bola uchun yillik ish unumdorligi ko'rsatkichi 280 dollarga teng. Bola qoniqarsiz oziqlanish oqibatida nogiron bo'lib, ish unumdorligini qisman yoki to'liq yo'qotishi mumkin.

1-kiritma.

Nigeriyada qoniqarsiz oziqlanish oqibatlari

Ushbu holda DALY** (nogironlik e'tiborga olingan hayot uzoqligi) indeksini quyidagicha hisoblash mumkin:

1. $4\,855\,000 \times 36\% = 1\,747\,800$ to'yib ovqatlanmaydigan bolalar.

2. $DALY = \$280 \times 1\,747\,800 = \$489\,384\,000$

1994 yilda Nigeriyada tugilgan chaqaloklarning umumiy soni 4 855 000ni tashkil kildi.

1994 yilda 5 yoshgacha bo'lib, qoniqarsiz oziqlangan bolalar hissasi 36 foizni tashkil kildi.

$4\,855\,000 \times 36\% = 1\,747\,800$ bolalar yetarli oziq-ovqat bilan ta'minlanmadi.

$DALY = \$280 \times 1\,747\,800 = \$489\,384\,000$

Bu shuni ko'rsatadiki, bolalar qoniqarsiz oziqlanishi tufayli har yili Nigeriya \$489 384 000 yo'qotishi mumkin.

FAO hisob-kitoblariga ko'ra qoniqarsiz oziqlanish sababli har yilgi yo'qotishlar 30 mlrd. dollarga teng.

Jan-Lui Arkand fikriga ko'ra 1960 va 1990 yillar orasida Afrikaning Sahroi Kabirdan janubiy qismida qoniqarsiz oziqlanish va ocharchilik har yili jon boshiga yalpi ichki mahsulotning 0,5-1,5 foizga kamayishiga olib kelgan. Qahatchilik sababli mehnat unumdorligi pasayishi (iqtisodiy o'sishga bevosita oziq-ovqat ta'siri") mazkur yo'qotishning yarmiga tugri keladi. Uning qolgani oziq-ovqat yetishmasligi sababli hayot qisqarishi oqibatidir. Shuni e'tiborga olish lozimki, hatto o'sishning bir foiz kamayishi ham milliy iqtisodiyotga, aholi farovonligiga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Global oziq-ovqat muammolarini tartibga solishda BMTning Qishloq xo'jaligi va oziq - ovqat tashkilotining roli va faoliyati

Dunyodagi mavjud oziq-ovqat muammolarining oldini olish nafaqat bir mamlakat balki butun xalqaro hamjamiyati oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shuni chuqur anglab yetgan holatda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlash borasida XIX asr oxirlarida XX asr boshlarida bir necha davlatlar o'rtasida bu masalani hal etish borasida qator ishlar va xalqaro



kelishuvlar amalga oshiriladi. Shulardan birinchisi va miqyosi darajasidan katta ahamiyatga ega bo'lgani bu - 1905-yil may –iyun oylarida Rimda amerikalik olim , qishloq xo'jalik sohasi mutaxasisi Devid Lyubin tashabbusi bilan xalqaro oziq-ovqat muammolariga bag'ishlangan konferensiya hisoblanadi. Bu konferensiyada Xalqaro Oziq-Ovqat Institutini tashkil etish to'g'risida kelishuvga kelinadi. Keyinchalik bu tashkilot asosida 1945-yil 16-oktabrda Kanadaning Quebec shahridagi xalqaro yig'inda BMT tasarrufidagi FAO (**Food and Agriculture Organization of the United Nations**) xalqaro tashkiloti tuziladi.



Mazkur tashkil etilgan xalqaro tashkilot global muammo hisoblangan oziq-ovqat tanqisligi, ochlik muammosi , kambag'allik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda dunyo davlatlariga ko'mak ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib oladi.

Bu tashkilotning asosiy vazifasi sifatida quyidagilar belgilanib olindi:

- rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga ochlikka qarshi kurashda ko'mak ko'rsatish,
- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi oziq-ovqat ta'minotiga ko'maklashish;
- qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik, dengiz mahsulotlari produktivligini ta'minlash;
- qishloq joylaridagi iste'molga bo'lgan nochorlikni oldini olish, iste'molga kam qurbli bo'lgan aholini ijtimoiy himoyalash;
- qishloq joylaridagi ochlik va kambag'allikni oldini olish;
- davlatlarga xavfsiz va samarador oziq-ovqat tizimini yaratishda ko'maklashish,

-inson tomonidan va tabiiy ravishda sodir bo'lgan falokatlar paytida davlatlarga oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tizimini saqlab qolish va qayta tiklashga ko'maklashish;

FAO bugungi kunda o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajarishda bir qator boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib bormoqda . Ular qatoriga Jahon Banki, Butun Jahon Sog'liqni saqlash Tashkiloti, Osiyo Tarqqiyot Banki va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar kiradi. Bu tashkilotlar bilan birgalikda rivojlanayotgan va oziq-ovqat muammosi mavjud bo'lgan davlatlarga bir qator xalqaro dasturlar orqali ko'mak ko'rsatilmoqda.

Dunyoning ko'p mamlakatlarida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish qishlok xo'jaligi va savdo tarmog'ida strategiya va dasturlarning tatbiqiga bog'lik. Ularni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- Ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash siyosati;
- Savdo siyosati;
- Iste'molni qo'llab-quvvatlash strategiyalari;

Bunday dasturlar bir birini cheklamagan va ko'p mamlakatlarda bir vaqtda amalga oshirilganini ta'kidlash lozim. Ular quyida tahlil qilinishi mumkin:



Ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash siyosati

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida "Yashil inqilob" nomi bilan tanilgan ekinlar hosildorligi birdan yuksalishi jarayoni sharofati bilan oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi ancha oshdi. FAO ma'lumotlariga kura 1980 va 2000 yillar orasida bug'doy hosildorligi 208 foizga oshdi hamda sholi, makkajo'xori va kartoshka hosildorligi tegishli ravishda 109, 157 va 78 foizga oshdi³.

Ekin hosildorligi keskin oshishi asosan ilmiy va texnikaviy yuksalish, jumladan ekinlarning yuhori xosildor navlari, kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlardan kengroq foydalanish xamda sug'orish va mexanizatsiya sharofati bilan ro'y berdi. Mazkur texnologiyalar ekin maydonini ozgina kengayishi bilan qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanishi tufayli buldi. Masalan, 1960 yillarda hosildorligi yuqori sholi navi joriy etilgan. 1989 yilga kelib sholikorlik maydoni bor-yog'i 13 foizga oshgan bo'lsada, hosil miqdori 240 milliondan 483 millionga etdi. Ayni shu paytda mineral ug'itlardan foydalanish kursatkichi gektarga 17 kgdan 110 kg gacha oshdi.

Savdo siyosati

Turli mamlakatlarda oziq-ovqat savdosi siyosati savdoni cheklovchi va savdoni erkinlashtiruvchi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Savdo cheklovlari bu borada faol qo'llanuvchi usullardan biri hisoblanadi. Xalqaro oziq-ovqat savdosida o'sishga qaramay, oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizi mamlakat ichki bozorlarida iste'mol qilinadi. Bunday baland foiz ko'rsatkichi ko'p mamlakatlar tomonidan oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun oziq-ovqat importiga nisbatan kiritgan cheklovlari tufaylidir. Bu odatda litsenziyalash, baland tariflar va to'lovlar orqali milliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalash va o'zini o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlash maqsadida qilinadi. O'zini o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlash dasturlari asosan eng zarur ekinlar, jumladan bug'doy, guruch va boshqa donli ekinlar yetishtirilishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'ladi.

Iste'molni qo'llab-quvvatlash siyosati

Iste'molni qo'llab-quvvatlash dasturlarining maqsadi butun aholi yoki uning bir qismiga muayyan oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lish uchun iqtisodiy imkoniyatni ta'minlashdir. Maqsadli oziq-ovqat bilan ko'mak dasturlari aholining mahsus guruhlari uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Masalan, ko'p mamlakatlarda maktab o'quvchilari uchun tekin yoki arzon oziq-ovqat ta'minoti dasturi mavjud. Mazkur dasturlar bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishini takomillashtirish, ularning o'qish va uqish qobiliyatini kuchaytirish va kelajakda mamlakatda mehnat unumdorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Maqsadga qaratilgan dasturlar yana xomilador ayollar, chaqaloq bolali ayollar va maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalar kabi aholi qatlamlariga qaratilishi mumkin.

Rivojlanayotgan davlatlarda oziq-ovqat muammosining ko'lami, sabablari va unga ta'sir etuvchi omillar

BMT Rivojlanish Dasturi tomonidan tayyorlangan Insoniyat rivojlanishi haqidagi 1998 yilgi dokladda quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: Dunyo miqyosidagi iste'mol darajasi 1950 yildagi 1,5 trillion AQSh dollaridan 1990 yilda 4 trillion AQSh dollarigacha ortdi. 1950 yildan 1975 yilgacha, 25 yil mobaynida iste'mol uch baravarga - 12 trillion AQShdollarigacha ortdi. 1975 yildan 1998 yilgacha, 23 yil mobaynida u yana ikki baravarga - 24 trillion AQShdollarigacha

³www.fao.net FAOstatbook(2002)



ortdi.

So'nggi 25 yil mobaynida rivojlangan mamlakatlarda jon boshiga iste'mol doimiy ravishda (yiliga taxminan 2,3%ga) ortib bordi, bu ayniqsa, Sharqiy Osiyoda juda yuqori (6,1%) va Janubiy Osiyoda o'sib borayotgan (2,0%) darajada ko'zatildi. Shunga qaramasdan, rivojlanayotgan mamlakatlar rivojlangan mamlakatlar darajasidan juda orqada qolmoqda, ularda jon boshiga iste'mol darajasini o'sishi juda sekin yoki deyarli o'zgarishsizdir. Afrikadagi o'rtacha oila bundan 25 yil avvalgiga nisbatan 25% kam iste'mol qilmoqda. Dunyoning eng qashshoq 20% aholisi iste'mol darajasini juda tez o'sishidan chetda qolmoqda. 1 milliarddan ortiq odamlar asosiy iste'mol ehtiyojlarini qondira olmaydilar. 2-222 BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti direktori 2000 yildagi Jahon Oziq-ovqat kuniga bag'ishlangan bayonotida quyidagilarni qayd etgan edi: Ocharchilik va kambag'allikni hech bir inson ruhan qabul qila olmaydi, shuning uchun bu holatlarga barham berish zarur. Ochlik va doimo to'yib ovqat yemaslik inson hayotini qisqartiradi. Xavfsiz, to'yimli va sog'lom oziq-ovqat olish uchun jismoniy yoki moliyaviy imkoniyatning yo'qligi xalqlar va millatlar uchun salbiy oqibatlariga olib keladi⁴.

Ushbu modulda «oziq-ovqat xavfsizligi» konsepsiyasiga va unga erishish yo'llariga asosiy e'tibor qaratiladi. Aholi nufusining o'sishi haqidagi yangicha tasavvurlar «aholi sonining haddan ortiqqligi» haqidagi an'anaviy eskicha qarashlarni qaytadan ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatdi. Tanqidiy baholashlarning yo'qligi sababli aholi sonini o'sishiga qarashlar «jahon miqyosidagi ocharchilik» va «millionlab och odamlar» tushunchalarini paydo qildi. Biroq, bu doimo ham haqiqatga to'g'ri kelmasligini hisobga olish zarur, ammo bu tasavvurlar qurg'oqchilik, qatag'onlar yoki urushlarning fojeali oqibati bo'lishi ham mumkin. Ocharchilik va aholi nufusi orasidagi bog'liqlik – oddiy masala emas. Masalan, Niderlandiya va Singapur dunyodagi aholi zichligi eng yuqori mamlakatlardan hisoblanadi, biroq juda kam odamlargina bu mamlakatlarda aholi soni haddan ortiq deyishlari mumkin.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi va uni ta'minlash yo'llari

Barqaror uzoq muddatli oziq-ovqat xavfsizligiga erishish O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muvaffakiyatlariga o'zaro bog'liq bo'lgan muhim vazifasi hisoblanadi. Unga yirik makroiqtisodiy va qishloq xo'jaligiga oid muammolarni hal qilmasdan erishish qiyin. Oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun qishloq xo'jaligi, aholi farovonligini oshirish, uzluksiz va barqaror iqtisodiy o'sish hamda kambag'allik darajasini qisqartirish borasida kompleks institutsional siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish lozim hisoblanadi.

Ko'plab mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kambag'allikni qisqartirishning asosiy sharti va omili bu -iqtisodiy o'sishdir. U turmush darajasini oshiradi hamda oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol qilinishini yaxshilaydi.

Liberalizatsiyalash va xalqaro savdo hajmlarini oshirish oziq-ovqat mahsulotlarining xilma-xilligini hamda iqtisodiy ta'minotini yaxshilaydi. FAOning savdo va oziq-ovqat xavfsizligi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlari xalqaro savdo, iqtisodiy o'sish va aholining oziq-ovqat xavfsizligi o'rtasidagi bevosita aloqasini aniqlaydi. Oziq-ovqat mahsulotlarining erkin xalqaro savdosi qishloq xo'jaligidagi nomutanosibliklarni bartaraf etadi va ishlab

⁴ Manba : Diouf, J. (2000) World Food Day – bayonot. USA.2000



chiqarishni maqbullashtirishga ko'maklashadi. Xalqaro savdo O'zbekistonning agrar sohasiga o'zining nisbiy afzalliklarini aniqlash va ulardan samaraliroq foydalanish borasida qator yordam ko'rsatadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining importi ichki bozorda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, narxlarni pasaytirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat muhitini yaratish imkonini beradi va buning natijasida ularning samaradorlikni oshirishga majbur qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari eksporti mahalliy ishlab chiqaruvchilarga tashqi bozorlarda raqobatlashish imkonini beradi hamda shu bilan birga sarf-xarajatlarni kamaytirish va yanada samarali ishlashga majbur qiladi. Va, nihoyat, xalqaro savdo iqtisodiy o'sishga turtki beradi va turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi, bu esa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik, oziq-ovqat mahsulotlarining iqtisodiy ommabopligi va iste'mol qilinishini oshiradi.

Oziq-ovqat xavfsizligining asosini ichki ishlab chiqarish yoki import hisobidan yetkazib beriladigan kerakli sifatga ega yetarli oziq-ovqat hajmi tashkil etadi. Mamlakat miqyosida oziq-ovqat ta'minoti, odatda, oziq-ovqat balansida ifodalanadi. Oziq-ovqat ishlab chiqarilishi hajmi ularning eksporti importini hisobga olganda mamlakatning umuman oziq-ovqat bilan ta'minlanganligi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Oziq – ovqat mahsulotlari savdosi

Savdo mamlakatning qishlok xo'jaligi ishlab chiqarishidagi nisbiy ustunliklari- dan foydalanish imkonini beradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining importi ichki bo- zorda oziq-ovqat ta'minoti darajasini oshirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobat uchun shart-sharoit yaratishi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarga tashqi bozorlarda raqobatlashish imkonini beradi. Ichki va tashqi xalqaro raqobat samaradorlikning oshishi uchun rag'batlar yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston bugungi kunga kelib o'zining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlarini o'z salohiyati orqali butunlay qoplay oladi. Bu mustaqillik qo'lga kiritilgan so'ng bu sohaga berilgan katta e'tibor va o'tkazilgan islohotlar samarasidir.

Xulosa va takliflar

Dunyo aholisi o'sishda davom etmoqda, BMTning bildirishicha, 2050 yilga borib sayyoramizda aholi to'qqiz milliardga yetadi. Demak, oziq-ovqat ta'minoti muammosi yanada dolzarblashishi kuzatilishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, dunyo oziq-ovqat yetishmasligi va kambag'allik muammosidan aziyat chekayotgan insonlarning aksariyati, aniqlik bilan 65 foizi kam miqdorda taraqqiy etgan davlatlarda emas, balki rivojlanayotgan davlatlarda yashashadi. Bunday insonlar dunyo aholisining 2 milliardga yaqin qismini tashkil etadi. Ularning 1.4 milliard rivojlanayotgan, 600 millioni esa kambag'al davlatlarda yashaydi. Saksses universiteti qoshidagi Taraqqiyot tadqiqotlari instituti professori Endi Samner fikricha, so'nggi o'n yil mobaynida ko'p mamlakatlarda o'rtacha daromad ancha oshdi. Lekin qilingan bashoratlarga qaramay, kambag'allik ko'lami pasayishi kam miqdorda kuzatildi. BMT ming yillik rivojlanish dasturining maqsadlaridan biri - 2030 yilga borib qashshoqlik va ocharchilikni keskin qisqartirishdir. Bu yo'ldagi urinishlar ancha o'z samarasini bersada, so'nggi yillarda vujudga kelgan moliyaviy va iqtisodiy inqiroz vaziyatni tamoman og'irlashtirdi. Iqtisodiyoti yiliga besh-olti foiz o'sayotgan davlatlardalarda ham kuniga bir dollarga yashayotganlar safi kamaymayapti. Bu esa oziq-ovqat tanqisligi va



kambag'allik muammosi qurboniga aylanayotganlarning soni ko'payib borayotganligini bildiradi.

Keyingi yillarda turli sabablar, hatto ob-havo ham dunyoning asosiy qishloq xo'jalik mintaqalarini murakkab ahvolga solib qo'yimoqda.

Mazkur muammoni chuqur o'rganish va tahlil etish jarayonida yuqoridagi xulosalardan foydalanib, quyidagi takliflarni amalga joriy etish mumkin:

- ✓ Rivojlanayotgan davlatlarda mavjud qishloq-xo'jalik strukturasi va turmush darajasini yaxshilash uchun xalqaro tashkilotlar ahamiyati oshirish
- ✓ ratsional ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi tashviqot etish doirasida ilmiy tadqiqodlar o'tkazish
- ✓ qishloq xo'jaligiga qo'shimcha ravishda oziq-ovqat manbai hisoblanadigan chorvachilik va baliqchilik resurslaridan foydalanish ko'lamini oshirish kerak
- ✓ intensiv foydalaniladigan yerlar hajmini yangi yerlar hisobiga kengaytirish
- ✓ mavjud yerlarning biologik mahsuldorligini oshirish

Yuqoridagi takliflar amaliyotga tadbiiq etilsa, oziq-ovqat muammosing oldi bir qadar olingan bo'lar edi. Buning uchun mavjud yerlarning biologik mahsuldorligini oshirish kerak. Bu yo'lni amalga oshirishda biotexnologiya, o'simliklarning yangi, yuqori hosildor navlaridan va tuproqqa ishlov berishning yangi usullaridan foydalanish, mexanizasiya, kimyolashtirish, shuningdek meliorasiyani yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham agrar sohani isloh qilish, uni zamonaviy, zararsiz texnologiyalar bilan ta'minlash barcha mamlakatlar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyoda mana shunday murakkab jarayonlar davom etayotgan bir paytda mamlakatimizda narx-navoning keskin o'sishiga yo'l qo'yilmayotgani, boz ustiga, har yili g'alla xirmonlari yuksalayotgani, respublikamizda insonning qadr topayotgani, inson manfaatlari oliy qadriyat ekanining yana bir nishonasidir.

Eng muhimi, istiqloqlning o'tgan qisqa davri mobaynida Vatanimiz g'alla mustaqilligini qo'lga kiritib, nafaqat o'ttiz besh millionli xalqimiz ehtiyojini to'la ta'minlash, ayni paytda chetga don eksport qiladigan davlatlar qatoridan joy olishga erishgani hamda xalqimizning to'la to'kis hayot darajasi, bozorlarimizning mahsulotlarga to'la ekanligi, ertangi kunimizga bo'lgan ishonchimizni yanada mustahkamlaydi.

References:

1. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
2. Karimov I. A. O'z kelajagimizni O'z qo'limiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2005.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent:
4. Figueroa A. N. Europe and Central Asia: Problems and Perspectives. Dublin, 2009.
5. M. Xakimova, X. Xujjaev, B. Maxmudov "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasi", Toshkent, 1997 y.
6. R.Shodiyev "Jahon iqtisodiyoti". Toshkent. 2005
7. Nikolayev "Jahon iqtisodiyoti". Moskva. 2006
8. B.M.Smitienko "Jahon Iqtisodiyoti". Moskva. 2012
9. Кононов Продовольственная проблема в мировом хозяйстве



10. www.ifad.com
11. www.whocom
12. www.isa.com
13. www.stat.uz
14. www.unicap.com
15. www.ereport.ru
16. www.fao.net
17. <http://www.wto.org>
18. <http://www.worldbank.org>